

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NIZAMOVA SHOIRA ISAMIDDINOVNA

**ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI
BOSHQARISHNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH**

08.00.13- Menejment

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent -2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации по
экономическим наукам**

**Table of contents for the abstract of a doctoral (dsc) dissertation in economic
sciences**

Nizamova Shoira Isamiddinovna

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta’lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-
iqtisodiy rivojlantirish..... 3

Низамова Шоира Исамиддиновна

Социально-экономическое развитие управления системой высшего
образования в условиях современного развития..... 33

Nizamova Shoira Isamiddinovna

Socio-economic development of higher education system management in
the context of contemporary progress 67

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 72

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NIZAMOVA SHOIRA ISAMIDDINOVNA

ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI
BOSHQARISHNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH

08.00.13- Menejment

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent -2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1818 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Nazarova Fotima Xakimovna iqtisodiyot fanlari doktori., professor
Rasmiy opponentlar:	Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich iqtisodiyot fanlari doktori., akademik Qoriyeva Yoqutxon Karimovna iqtisodiyot fanlari doktori., professor Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.1.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «9» 06 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100059, (Manzil: 100066, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 227-12-52; faks: (99871) 246-06-69.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2040 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 227-12-52; faks: (99871) 246-06-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» 05 kuni tarqatildi.
(2026-yil «25» 06 dagi 41 raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lib, inson kapitali, innovatsiya salohiyati va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvozanatlashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ta'lim tizimini boshqarishda iqtisodiy samaradorlik bilan ijtimoiy adolat o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va raqamli boshqaruv modellarini joriy etish oliy ta'lim muassasalarining barqarorligini oshiradi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, "ta'limni samarali boshqarish har bir mamlakatda YaIMning 1 foizga o'sishiga teng darajada mehnat unumdorligini oshiradi"¹. Shu bois, oliy ta'limni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati mamlakatning raqobatbardosh iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik sari intilishining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)da mehnat bozorida talab katta bo'lishi ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlikni oshirib, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash global indikatorlardan biri sifatida belgilangan. Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish oliy ta'limi tizimida boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda ta'limning zamonaviy taraqqiyot bosqichida oliy ta'lim tizimini barqaror sur'atlarda rivojlanishi, oliy ta'lim tizimini tijoratlashtirish, oliy ta'lim va mehnat bozorining o'zaro aloqasi, ta'lim sifati va uning rivojlanish mexanizmini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish, davlat xususiy sheriklik asosida oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning metodologik-uslubiy jihatlari bo'yicha muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'limni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantirish, iqtisodiyotning jadal modernizatsiyalashuvi sharoitida ta'lim tizimidagi islohotlarni mehnat bozorini rivojlanishini ta'minlab, mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi, sifati va kasbiy malaka ko'nikmalarini tarkibiga bo'lgan talabni o'zgartirib, inson kapitalini takror ishlab chiqarish tizimini isloh etishni talab etadi. Bu oliy ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy talablarga mos kelishini ta'minlash mexanizmlarini joriy etishni talab etadi.

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta'minlash borasida oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ta'lim sifati boshqaruvini yaxshilash bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» kontseptsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish"², "ta'lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosatni

¹ World Bank, The Changing Wealth of Nations 2023.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"PF-5847-son Farmoni.

izchil davom ettirish”³ ta’kidlandi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo‘lida bir qator vazifalar belgilangan va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, davlat grantlari soni va qoldirilgan talabalar uchun grant mexanizmlari kengaytirilgan, qabul kvotalari va oliy ta’limga qamrov darajasi sezilarli darajada oshirilgan bo‘lib, maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish 9% dan 47 %gacha o‘ydi⁴. Ushbu chora-tadbirlar oliy ta’lim muassasalarida bilim sifati va ilmiy faoliyat mavqeini yuksaltirish, iqtisodiy jozibadorlikni oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlashga xizmat qilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari” to‘g‘risida, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁵. Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Oksford universitetida (Buyuk Britaniya), Melburn universitetining ta’lim siyosati

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20- noyabrdagi “Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan majlisida nutqi.

⁴ Manba:“Oliy ta’lim islohotlari: muammolar, yechimlar, yutuqlar” sayti, 2024. - <https://uza.uz/ru/posts/talim-islohotlari-taraqqiyotga-yetaklaydi>.

⁵ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: George Washington University Graduate School of Education and Human Development. (2023). Master’s in Organizational Leadership and Learning [Master’s program]. George Washington University. <https://gsehd.gwu.edu/masters-oll>; Albert, K., Zenville, H., & Crawford, S. (2021). New Directions for Non-Degree Credentialing Research [Research report]. Program on Skills, Credentials & Workforce Policy (PSCWP); UNESCO. (2021). Using data to improve the quality of education [Issue brief]. UNESCO International Institute for Educational Planning. <https://learningportal.iiep.unesco.org/en/issue-briefs/monitorlearning/using-data-to-improve-the-quality-of-education>; Loughborough University. (2021) va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan

tadqiqotlari markazida (Avstraliya), Florentsiyadagi Evropa universitet institutida (Italiya), Stenford universitetida (AQSh), Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyalari, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta’lim tizimining kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida olib borilmoqda. Jahon ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishda innovatsion o‘qitish, noformal ta’lim yondashuvlari va boshqarishning zamonaviy usullarini rivojlantirish tahlil qilindi: Ish joyida o‘qitish instituti (WLI) qoshidagi George Washington Universitetida (AQSh); Monash Universitetida (Avstraliya) o‘z-o‘zini tartibga solish strategiyalari va qayta aloqa ta’siri orqali ta’limni o‘zgaruvchan talablarga moslashtirish; Cassel Universiteti qoshidagi oliy ta’lim institutida (Germaniya) tezkor o‘zgaruvchan ta’lim muhitida strategik rejalashtirish va moslashuvchan boshqaruv xususiyatlari; Oliy Iqtisodiyot Maktabida ta’lim siyosatini ishlab chiqish va ta’limning barcha bosqichlarida sifatni boshqarish jihatlari (Rossiya). Jahonda oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va menejerlari uchun ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, transformatsion sharoitida ta’lim xizmatlari sohasidagi pedagogik imkoniyatlarini modellashtirish, boshqarish strategiyalari kontekstida boshqaruv va liderlik ko‘nikmalarini chuqurlashtirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, marketing texnologiyalari vositasida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini boshqarishning nazariy-uslubiy, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimi axborotlashtirish, menejmentni samarali tashkil qilish masalalari xorijlik olimlardan Z. Barnard, Derek Van der Merwe, F.Kotler, M.Meskon, P.Druker, G.Armstrong, B.Nikolson, F.Vebster, U.Sharp, Dj.Beyli⁶ lar tadqiqotlarida atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Yu. M, Tso‘galov, O. G. Ponomareva, A. N. Lanskiy, I .N. Do’shlova, A. A. Pegushina, A. V. Morozov, I. Yu. Nizovtseva, E. D. Koryagina, Ch. U. Adamkulova⁷ oliy ta’limni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish

⁶ Zenia Barnard, Derek Van der Merwe Innovative management for organizational sustainability in higher education Article in International Journal of Sustainability in Higher Education · March 2016; Котлер Ф. Основы маркетинга. Перевод с англ. М.: Прогресс, 2010; Мескон М.Х. и др. Основы менеджмента. Перевод с англ. М.: Дело, 2007; Друкер П.Ф. Задачи менеджмента в XXI веке. М.: Вильямс, 2007; Armstrong G., Kotler P. Principles of marketing. Prentice Hall, 12 edition, 2006; Heeks R., Nicholson B. Software Export Success Factors and Strategies in Developing and Transitional Economies. 2002; Webster F. Theories of the Information Society. London: Routledge, 2002; Шарп У., Бейли Дж. Инвестиции: пер. с англ. – М.:ИНФРА, 2000

⁷ Цыгалов Ю.М. Направления совершенствования социальной поддержки обучения в высшей школе России / Цыгалов Ю.М., Свиря Е.Ю., Козловская М.И. // Экономика и управление- Б.м. — 2010.- № 4. - С.82-88. 3. Пономарева О. Г. Взаимодействие рынков труда и образовательных услуг в сфере высшего образования региона: автореферат диссертации ... кандидата экономических наук : 08.00.05 Москва, 2010. - 26 с; А.Н Ланских. Проблемы формирования экономических основ управления высшим образованием в условиях модернизации экономики. Формирование экономических основ управления. Бизнес в законе 2/2011стр 231-233; Дышловой И.Н., Пегушина А.А. Оптимизация управления высшими учебными заведениями как основа конкуренто-способности. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2018 - №2.стр.91-98. Морозов А.В. Особенности управления высшим учебным заведением в современных условиях / А.В. Морозов // Управление образованием: теория и практика. — 2016. — № 2 (22). — С. 90–106. Низовцева И.Ю. Роль высшего образования в современной экономике знаний и инноваций / И.Ю. Низовцева [Электронный ресурс]. — Режим доступа: www.econ.msu.ru/cmt2/lib/a/1158/file/_46.pdf (дата обращения: 12.02.2018). Корягина Е.Д. Совершенствование механизмов управления развитием высшего образования в России. Диссер.на соис. ученой степени доктора эконом. наук. Москва, 2022 г., 169 с; Адамкулова Ч.У. Формирование механизма организации управления развитием вуза в условиях

yoʻnalishlari, oliy taʼlim tizimida mehnat bozori va taʼlim xizmatlari bozorining integratsiyasi, oliy taʼlimni boshqarishni iqtisodiy negizini shakllantirish masalalariga doir tadqiqot ishlari olib borishgan.

Soʻnggi yillarda mamlakatimiz tadqiqotchi-olimlari tomonidan taʼlim tizimining boshqaruv samaradorligini oshirishda iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yoʻnaltirilganligiga doir tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Oʻzbekiston iqtisodchi olimlari Z. A. Ashurov, B. B. Begalov, A. O. Ochilov, N. R. Raxmonov, R. M. Usmanova, O. A. Ergashyev, Sh. Sh. Zoxidova, R. I. Nurimbetov, M. Eshov, M. X. Saidov, A. A. Maxmudov⁸ tomonidan oliy taʼlim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, oliy taʼlim tizimini moliyaviy boshqaruv hamda taʼlim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borilgan.

Oliy taʼlim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish va boshqaruvining samaradorligini baholash, oliy taʼlim muassasasini boshqarishni iqtisodiy diagnostika qilish masalalariga doir tadqiqotlar T.Z. Teshabayev, O.S. Qahhorov, N. Nazarov, D.N. Raximova, N.J. Sotvoldiyevlar tomonidan olib borilgan⁹.

Mavjud tadqiqotlar tahlili ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida oliy taʼlim tizimini menejment tamoyillari asosida boshqarish masalalari yetarli darajada oʻrganilmaganini koʻrsatadi, bu oʻz navbatida ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170929648 “Oʻzbekiston davlat taʼlim standartlarini jahon taʼlim standartlariga integratsiyalash (iqtisodiyot yoʻnalishlari va mutaxassisliklari misolida)” mavzusidagi amaliy loyiha (2018 – 2022 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy taʼlim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

модернизации сферы высшего образования: теория, методология, практика. Диссер.на соис. ученой степени доктора эконом. наук. Душанбе, 2018 г., 367 с

⁸ Ashurov Z.A. “Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” G’ Monografiya. T.: “LESSON PRESS” nashriyoti, 2019.-B.275. Gʻulomov S., Begalov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida taʼlim sifatini yuksaltirish yoʻllari. // Iqtisodiyot va talim. – 2010. –№2. –B. 72-75.; Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: Iqt. fan. dok. (DSc) diss. –T., 2018. –241 b.; Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy taʼlim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. –Toshkent, 2019, 82 b.; Usmanova R.M. Taʼlim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish: iqt. fan. nom. dis. avtoref. –T. 2012. –24 b.; Ergashyev O.A. Taʼlim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (Oʻzbekiston Respublikasi oʻrta-maxsus, kasb xunar tizimi misolida) : iqt. fan. dok. dis. avtoref. ToshDTU 2006. – 24 b.; Zaxidova Sh.Sh. Oliy taʼlim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (Oʻzbekiston materiallari asosida) : iqt. fan. nom. dis. avtoref. – T.: 2012. –27 b.; Nurimbetov R.I. Universitet 3.0 modeli va taʼlim sifatini taʼminlash masalalari. - oʻquv-metodik qoʻllanma. – Toshkent, 2020.; Eshov, M. (2023). Logistika xizmatlarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 9–16; Saidov M.X. Oliy taʼlim tizimida moliyaviy boshqaruv: oʻquv qoʻllanma GʻM.X.Saidov. – T.: «Tafakkur-Boʻstoni», 2011. 432 b.; Maxmudov A.A. Oliy taʼlim muassasalarida moliyaviy resurslari boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. - T.: IMPRESS MEDIA, 2019-y.,

⁹ Teshabayev T.Z. Oliy taʼlim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dis. – Toshkent, 2019; Qahhorov O.S. Taʼlim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-y. D.N. Rahimova. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot Gʻ D.N. Rahimova va boshq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2009.792-b. Sotvoldiyev N.J. Oliy taʼlim muassasasini boshqarish – iqtisodiy diagnostika obyekti sifatida // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020-y;

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o'rganish va umumlashtirish;

zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy yondashuvlarini aniqlash;

oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir rivojlangan mamlakatlar modellarini o'rganish;

oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy holati hamda ta'lim sifatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmini aniqlash;

oliy ta'lim tizimini yangi taraqqiyotida innovatsion texnologiyalarni qo'llash holati tahlilini amalga oshirish;

oliy ta'lim tizimida transformatsiya tarmoqlararo hamkorlikning tashkil etishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarni innovatsion faolligini rag'batlantirish usullarining tahlilini amalga oshirish;

oliy ta'lim tizimini iqtisodiy rivojlantirish modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish munosabatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, so'rovnomalar, intervyu, modellashtirish, tajriba-sinov, matematik-statistik qayta ishlash, prognoz va tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "oliy ta'lim tizimini boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'lim muassasalarining byudjet va nobyudjet mablag'lari, investitsiyalar, inson kapitali hamda axborot resurslaridan samarali foydalanish orqali ta'lim sifati indeksi, xarajat-daromad nisbati va samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholanadigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion taraqqiyotni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy munosabatlar tizimi nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimini strategik rivojlantirishda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi indikatorlarning tasnifi akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion asosiy guruhlar tarkibiga raqamlashtirilgan ta'limdan foydalanish darajasi (*e-learning coverage index*), xalqaro reytinglardagi ishtiroki (*international ranking participation*), innovatsion startaplar va tijoratlashtirilgan loyihalar soni (*innovation & commercialization index*) xususiyl ko'rsatkichlarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tenglik (T q 0,23), inklyuzivlik (Ink q 0,28), innovatsiyalar (Inn q 0,35) va barqaror rivojlanish

(BR q 0,14) tamoyillariga asoslangan baholash tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqishda tamoyillararo maqbul nisbatni ta'minlash orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish asoslangan;

oliy ta'lim muassasalarida bilimga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy (tijoratlashtirish), tashkiliy (menejment o'zgarishlari) va pedagogik (yangi o'qitish usullari) yo'nalishlarni qamrab olgan ta'lim, ilm va tijorat integratsiya tizimini joriy etish orqali universitetlarning tijorat faoliyati ulushini kamida 25% ga oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda oliy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillar orqali samaradorlikni baholash uslubiyoti ilmiy asoslangan;

oliy ta'lim tizimi boshqaruvini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda sifat menejmentining klassik TQM tamoyillari ustuvorligiga asoslangan uslubiy yondashuvlar takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimini strategik rivojlantirishni ijtimoiy-iqtisodiy boshqarishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlarining tasnifi taklif etilgan;

oliy ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tenglik, inklyuzivlik, innovatsiyalar, ta'lim tizimining iqtisodiyotga ta'siri va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi baholash tizimining dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bilimga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy (tijoratlashtirish), tashkiliy (rahbarlik o'zgarishlari) va pedagogik (yangi o'qitish usullari) yondashuvlar asosida ta'lim, ilm va tijoratning integratsiya tizimini yaratish tavsiya etilgan;

oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha raqobatbardoshlik parametrlari ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va tavsiyalardan oliy ta'lim tizimi boshqaruv jarayoniga taklif etilgan model asosida samarali boshqaruvga erishish imkoniyatini asoslash, oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini ilmiy tadqiq etishning uslubiy asoslarini yanada kengaytirish va boyitish, ilmiy apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan amaliy tavsifdagi ishlanma va tavsiyalardan O‘zbekistonda oliy ta’limi tizimi boshqaruvini yanada takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar va namunaviy dasturlarini tayyorlash, ta’lim sifatiga qo‘yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta’lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “oliy ta’lim tizimini boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini ta’lim muassasalarining byudjet va nobyudjet mablag‘lari, investitsiyalar, inson kapitali hamda axborot resurslaridan samarali foydalanish orqali ta’lim sifati indeksi, xarajat-daromad nisbati va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion taraqqiyotni ta’minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy munosabatlar tizimi nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 5-dekabrda 02/02-01-556-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ta’lim sifati indeksi, xarajat-daromad nisbati va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan “oliy ta’lim tizimini boshqarish” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

oliy ta’lim tizimini strategik rivojlantirishda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi indikatorlarning tasnifi akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion asosiy guruhlar tarkibiga raqamlashtirilgan ta’limdan foydalanish darajasi (*e-learning coverage index*), xalqaro reytinglardagi ishtiroki (*international ranking participation*), innovatsion startaplar va tijoratlashtirilgan loyihalar soni (*innovation & commercialization index*) xususiy ko‘rsatkichlarni kiritish asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 5-dekabrda 02/02-01-556-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi indikatorlarning tasnifini akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion asosiy guruhlar tarkibiga xususiy ko‘rsatkichlarni kiritish asosida takomillashtirish imkoni yaratilgan;

oliy ta’lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tenglik (T q 0,23), inklyuzivlik (Ink q 0,28), innovatsiyalar (Inn q 0,35) va barqaror rivojlanish (BR q 0,14) tamoyillariga asoslangan baholash tizimining dasturiy ta’minotini ishlab chiqishda tamoyillararo maqbul nisbatni ta’minlash orqali samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 5-dekabrda 02/02-01-556-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy

etilishi natijasida baholash tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqishda tamoyillararo maqbul nisbatni ta'minlash orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bilimga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy (tijoratlashtirish), tashkiliy (menejment o'zgarishlari) va pedagogik (yangi o'qitish usullari) yo'nalishlarni qamrab olgan ta'lim, ilm va tijorat integratsiya tizimini joriy etish orqali universitetlarning tijorat faoliyati ulushini kamida 25% ga oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025- yil 5- dekabrda 02/02-01-556-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, ilm va tijorat bo'yicha integratsiya tizimini joriy etish orqali universitetlarning tijorat faoliyati ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda oliy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 5-dekabrda 02/02-01-556-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va ko'rsatkichlarning istiqboldagi parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali boshqarish samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot doirasida jami 24 nomdagi ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta ilmiy maqola, jumladan, 10 tasi xorijiy va 8 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 201 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari,

tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim tizimini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida oliy tizimini boshqaruv faoliyatini rivojlantirishga ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida boshqaruviga qo’yilgan zamonaviy talablar o’rganilgan. Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar modellari tahlili, boshqaruv faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv talablari bilan o’zaro integrativ aloqadorligi tadqiq qilingan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda xulosalar shakllantirilgan.

Bugungi kunda zamonaviy ilmiy manbalarda “oliy ta’lim tizimini boshqarish” tushunchasi ta’lim muassasalarining byudjet mablag’lari, investitsiyalar, inson kapitalidan samarali foydalanish orqali ta’lim sifati indeksini oshirishga qaratilgan boshqaruv bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilab, zamonaviy bilimni egallagan, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish kun tartibiga chiqmoqda.


Zamonaviy sharoitda oliy ta’limni boshqarish ilg’or texnologiyalar va xalqaro standartlarga asoslanib, nazariy ta’limdan amaliy kompetentsiyalarga yo’naltirilgan tizimga bosqichma-bosqich o’tishni talab etadi. Bu jarayon oliy ta’lim tizimidagi tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatidagi asosiy tarkibiy qismlari tahlili amalga oshirishga qaratilgan. Tadqiqot ishida davomida universitet modellarini tahlil etishda boshqaruvi tarixi genezisi va tipologiyasi nuqtai nazaridan o’rganildi. Jumladan, F. Teylorning boshqaruv nazariyasiga ko’ra, ilmiy usullar bilan boshqarish mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytiradi¹⁰. Ushbu ilmiy boshqaruv nazariyasi ish jarayonlari va mehnat unumdorligini tizimli o’rganish orqali tashkilotning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan. J.T.Toshchenko, ijtimoiy boshqaruvni “jamiyatda yuz beradigan barcha jarayonlarning ijtimoiy jihatlarini o’rganish, ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy bilimlar, boshqaruv usullari va uslublar majmui”¹¹ deb hisoblaydi.

Demak, ta’lim tizimini ijtimoiy boshqarish - jamiyatdagi ehtiyojlar, qadriyatlar va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda boshqarish jarayonidir. Ta’lim tizimini iqtisodiy boshqarish ta’lim jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, ta’lim xizmatlari bozorini tartibga solish mexanizmlari yig’indisi hisoblanadi. Tadqiqot ishiga doirasida xorijiy va MDH hamda mamlakatimiz olimlarining boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy boshqarishga oid ilmiy qarashlari o’rganildi. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga ko’ra, zamonaviy

¹⁰ Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. / Перевод с английского. – Москва: Журн. «Контроллинг» : Изд-во стандартов, 1991. – 104 с.

¹¹ Тощенко Ж.Т. Сущность социального управления // Проблемы социального управления. – М.: 1999. – С. 193.

ta'lim muassasalarini ijtimoiy-iqtisodiy boshqarishning tarkibiy qismlari tadqiqot ishida 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Oliy ta'limni boshqarish tizimining asosiy yo'nalishlari ¹²

Keltirilgan tahlilda zamonaviy ta'lim muassasalarining ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvining tarkibiy qismi maqsad-vazifalar, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar hamda

¹² Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

amaliy natijalar o‘zaro uyg‘unlashtirilish, oliy ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi yondashuvni asosida nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi. Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy yondashuvlari universitetlar boshqaruv amaliyotining muhim komponenti hisoblanadi. Umumiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy mavqeni mustahkamlash, raqobatbardoshlikni oshirib ta’lim xizmatlari bozori o‘zgarishlariga moslashishini ta’minlaydi. Demak, OTMlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda funktsional strategiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu strategiyalar ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi, marketing, ishlab chiqarish ta’lim xizmatlari yaratish, moliyaviy, innovatsion va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.



2-rasm. OTMning asosiy funktsional strategiyalari

Mazkur yondashuv OTM faoliyatini tizimli tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish hamda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar modellari asosida oliy ta’lim tizimida samarali boshqaruv koeffitsientlarini hisoblash bo‘yicha natijalar tahlil etildi. Asosan jahon universitetlarining 2025, 2026-yilgi reyting ko‘rsatkichlari tahlili amalga oshirildi. Ushbu ko‘rsatkichlar oliy ta’lim tizimida samarali boshqaruvni baholash uchun turli koeffitsientlar va indikatorlar qo‘llaniladi, ular resurslardan foydalanish samaradorligi, ta’lim sifati, ilmiy faoliyat va moliyaviy boshqaruvni o‘lchaydi.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlil 10 ta yirik universitetlarning akadempik faoliyat, iqtiboslar bo‘yicha birinchi o‘ntalik universitetlari reytingi aniqlandi. O‘rganilgan manbalar asosida, universitetlarning samaradorligi ko‘rsatkichi o‘rganishga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirilib, boshqaruv nazariyalari, yondashuvlari tadqiq etildi.

Bugungi kunda QS 2026 reytingi oliy ta’limda raqobatning kuchayib borayotganini va universitetlar nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qiluvchi hamda mehnat bozori bilan uzviy bog‘langan markazlar sifatida baholanmoqda. Mazkur modellarning tadqiqi universitetlarining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risidagi xulosani beradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari an’anaviy boshqaruvdan akademik mustaqillik tamoyillariga asoslangan

dinamik tizimga o'tishni talab etadi. Bunda xorijiy mamlakatlar modellarini o'rganish davlat nazorati va bozor mexanizmlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali ta'lim sifati va innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatini oshiradi.

1-jadval

QS Jahon Universitetlari 2025, 2026 yil Reytingi eng yaxshi global universitetlar ro'yxati¹³

№	Universitetlar	O'rni		Akademik o'bro'		Iqtiboslar		Umumiy ball	
		2025	2026	2025	2026	2025	2026	2025	2026
1	Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT)	1	1	100	100	100	100	100	100
2	London Imperial kolleji	2	2	98,5	95	93,9	99,6	98,5	99,4
3	Oksford universiteti	3	4	100	91	84,4	100	96,9	97,9
4	Garvard universiteti	4	5	100	100	100	100	96,8	97,7
5	Kembrij universiteti	5	6	100	88,6	84,6	100	96,7	97,2
6	Stenford universiteti	6	3	100	99,7	99	100	96,1	98,9
7	ETH Zurich	7	7	98,8	98,8	97,9	99,7	93,9	96,7
8	Singapur Milliy Universiteti (NUS)	8	8	99,5	95,9	93,1	99,9	93,7	95,9
9	UCL	9	9	99,5	80,9	72,2	99,9	91,6	95,8
10	Kaliforniya Texnologiya Instituti (Caltech)	10	10	96,5	100	100	98,3	90,9	94,3

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi “**Oliy ta'lim muassasalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish tendentsiyalari**” deb nomlanib, oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning holati, ta'lim sifatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmi, oliy ta'lim tizimini yangi tarqqiyotida innovatsion texnologiyalarni qo'llash holati tahliliga doir olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijalari tatqiqiga bag'ishlangan.

2-jadval

Oliy ta'lim sifatini baholash va strategik rivojlantirishda indikatorlar tasnifi


Ilmiy-pedagogik salohiyat indikatorlari	Ilmiy darajalar, Scopus, Web of Science nashrdagi iqtiboslar
O'quv-metodik jarayoni sifat indikatorlari	O'quv dasturlari, darsliklar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, xorijiy tillarda o'qitish va xorijiy talabalar ulushi
Talabalar natijalarining sifat indikatorlari	Bitiruvchilarning ishga joylashishi, buyutmachilar bilan integratsiya, ish beruvchilar so'rovnomalari ko'rsatkichlari
Infratuzilma indikatorlari	Ijtimoiy-madaniy faoliyat

Zamonaviy talablardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv jarayoni, uning samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ta'lim sifati ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Tadqiqot ishida OTMLar sifat va samaradorlik ko'rsatkichlari asosida mehnat bozori talabalarini o'rganib boriladi. Olib borilgan

¹³ <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>

ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, 3-jadvalda oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarga ko‘ra tasniflangan.

Mazkur tasnif, OTMLarni strategik rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari asosida professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, Scopus, Web of Science bazasidagi halqaro nashrlar hamda xorijiy hamkorlikdagi o‘quv mashg‘ulotlarining ulushi dan iborat. Shu bilan birga, o‘quv metodik jarayonni baholash o‘quv dasturlari, o‘quv resurslari, xorijiy tillarda o‘qitish hamda talabalarning akademik almashinuvi bilan baholanadi. Bitiruvchilarning ishga joylashdagi natijalar, o‘z sohasida faolyait yuritishi, ish joylaridagi samarali mehnat faoliyati hamda ish beruvchilardan olingan so‘rovnomalarning natijalariga asoslanadi. OTMLarning infratuzilma indikatorlari talabalar uchun yaratilgan sport infratuzilmasi va ijtimoiy-madaniy faoliyat natijalariga ko‘ra baholanadi. Tadqiqot davomida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ilmiy-innovatsion salohiyatni oshirishga doir ilmiy tahlil ham amalga oshirildi. Ushbu jarayonda davlat, jamoat, biznes va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning, ta‘lim sifatini oshirish va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlanib, zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta‘lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mexanizmi tarkibi tahlil etildi.



3-rasm. Oliy ta‘lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish¹⁴

3-rasmda oliy ta‘lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tuzilmasi berilgan bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizm guruhlariga ajratilgan

¹⁴ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

Dissertatsiya mavzusi nuqtai-nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarning bosqichlari tahlili amalga oshirildi. Ijtimoiy boshqaruv mexanizm davlat xususiy sherikchilik va jamoat ishtirokida tarmoq va markazlashgan boshqaruvning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ilmiy va ijtimoiy nazaratning amalga oshirilishi, tizimda gorizontallik hamkorlik, individual dasturlarning joriy etilganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga boshqaruvda KPI, sertifikatlashtirish, motivatsiya va sifatga e'tibor qaratilganligi raqobat va tizimda diversifikatsiyani amalga oshiradi. Iqtisodiy mexanizm iqtisodiy strategik boshqarish asosida ta'lim resurslarini ta'minlash, innovatsiya va texnologiyalar transferini yaratish orqali ilmiy mahsulotlarni tijoratlashtirish amalga oshiriladi. Bu iqtisodiy integratsiyani yaratib, moddiy texnik ta'minotni kuchaytiradi ham moliyaviy mexanizmlar rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda boshqaruvning tashkiliy jihatlarini ham o'rganildi. Mazkur jarayonda akkreditatsiya-attestatatsiya, o'quv-uslubiy kengash va ilmiy-innovatsion yo'nalishlarni bir tizimga aylantirib, universitetlarning akademik mustaqilligini raqamli transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirish asosida belgilanadi. Xususan, ichki va tashqi baholash, raqamli monitoring, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali sifat menejmenti tizimini shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, texnopark va startaplar, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlik orqali ilm-fan natijalarini iqtisodiyotga integratsiya qiladi (5-rasm).



4-rasm. Oliy ta'limda tashkiliy boshqaruv strategiyasi¹⁵

4-rasmda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy boshqaruv ta'lim sifatini boshqarish ko'rsatkichlari ta'lim jarayonining samaradorligini, ilmiy faoliyatni va

¹⁵ Tadqiqot davomida muallif tomonidan tayyorlangan

bitiruvchilar natijalarini baholashga asoslanadi. Bu ko'rsatkichlar oliy ta'lim tizimini tashkiliy boshqarishda rivojlanish strategiyalarini aniqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida oliy ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari bo'yicha tahlil amalga oshirildi. Biz tadqiqot jarayonida ta'lim sifati ko'rsatkichlari, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar, tizimdagi innovatsiyalar va tijorlashtirish natijalari bo'yicha kuzatuvlar olib borildi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarishning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini baholash uchun indikatorlarga asoslangan analitik tahlillar amalga oshirildi bular: ta'lim sifati, strategik rivojlanish, halqaro raqobatchilik, innovatsiya va tijorlashtirish darajasidir. Innovatsiya va tijorlashtirish solohiyati OTMLar bilan bog'liq bo'lgan startaplar va tijorlashtirilgan loyihalar soni bilan baholanadi. Ushbu baholash ko'p o'lchovli natijalarni ta'minlaganligi uchun tanlangan. OTMLarning integrallashgan faoliyatini baholash uchun innovatsiya va tijorlashtirish indeksi aniqlandi. Keltirilgan ma'lumotlarga asosan normallashtirilgan ko'rsatkichlar innovatsiya va tijorlashtirish indeksida ga jamlandi. Indeks qiymatlari 0,12 dan 0,87 gacha bo'lgan, o'rtacha qiymat 0,41 va standart og'ish 0,18 ga teng bo'lgan (3-jadval).


3-jadval

Ta'lim sifati, xalqarolashtirish va innovatsiya ko'rsatkichlarining tavsifiy statistikasi

Ko'rsatkichlar	O'rtacha	Stardart og'ish	Minimal	Maksimal
Talaba o'qituvchi nisbati	17,6	4,3	9,2	29,4
Bitiruv darajasi(%)	74,2	8,7	52,1	91,6
Skopusda indekslangan nashrlar (yiliga)	38,4	21,9	2	112
Innovatsion startaplar (son)	6,3	4,6	0	24
Tijorlashtirilgan loyihalar (soni)	3,1	2,4	0	14
Innovatsiya va tijorlashtirish indeksi (ISI)	0,41	0,18	0,12	0,87

Tadqiqot ishini olib borilgan tahlilarga ko'ra innovatsion jarayonlarni OTMLarda uchta darajasi aniqlashtirildi. Bular: innovatsion salohiyatning past darajasi ($ISI < 0,30$): o'rganilgan OTMLar ulushi (43,1 %)ga teng; o'rtacha innovatsion salohiyat darajasi ($0,30 \leq ISI < 0,60$): bu o'rganilgan OTMLar ulushi 40% dan iborat; yuqori innovatsion salohiyat darajasi ($ISI \geq 0,60$): bu OTMLar ulushining 16,9 % ni tashkil etadi.


Shunga asosan innovatsiya va tijorlashtirish indeksi tadqiqot natijalari bilan sezilarli bog'liqligini ko'rsatdi ($\beta = 0.327$, $p < 0.001$).



5-rasm. Oliy ta'lim muassasalarining innovatsiya va tijratlashtirish indeksi (ICI) darajalari bo'yicha taqsimlanishi

Mamlakatda ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, yosh ilmiy tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash va turli sohalarga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Fan va innovatsiyalarni rivojlantirishda mamlakat uchun dolzarb bo'lgan ekologiya, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohaslarida ishlar olib boradigan ko'plab zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy institutlar ochish muhimdir. Shu bilan birga ilmiy ma'lumotlarni boshqarish uchun AI-platformalar joriy etish va global ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari kengaytiradi. Davlat byudjetidan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi oshirish, ishlab chiqarish va ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlik o'rnatish uchun sharoitlar yaratish, talabalar, aspirantlar va yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, jumladan, xalqaro grantlar yo'lga qo'yildi, ilmiy tadqiqotchilarning xalqaro ilmiy loyihalar va konferentsiyalarda ishtiroki kengaytirish masalasi belgilangan.

6-rasmda kuzatuv natijalariga ko'ra, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Navoiy davlat universiteti, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Tashkent Perfect University, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiya institutidagi asosiy tijratlashtirish yo'nalishlari, innovatsion loyihalar va startaplar o'rganilgan.




6-rasm. OTMlarda tijratlashtirish yo'nalishlari¹⁶

¹⁶ Tadqiqot davomida muallif tomonidan tayyorlangan

Innovatsiya va ilm-fan sohalariga davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 3 barobarga hamda loyihalarni moliyalashtirish xajmi 3,5 barobarga oshirildi. Startap ekotizimini shakllantirish borasida 19 ta innovatsion infratuzilmalar tashkil qilindi, startap-loyihalarga grant mablag‘larini ajratish, startap jamoalarini aktselersiya va inkubatsiya dasturlaridan o‘tish tizimi joriy etilib, umumiy qiymati 105,7 mlrd so‘mlik 136 ta startap loyihalari moliyalashtirildi.

Shunday qilib, ikkinchi bobda oliy ta‘lim muassasalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish tendentsiyalari o‘rganishda oliy ta‘lim muassasalarini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holati, ta‘lim sifatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari hamda oliy ta‘lim tizimining yangi rivojlanish bosqichida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash holati chuqur tahlil etildi. Mazkur ilmiy izlanishlar natijalariga asoslanib, oliy ta‘lim muassasalarining innovatsion va tijorlashtirish salohiyati baholandi, sifat ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirish bo‘yicha takliflar asosida zamonaviy boshqaruv tendentsiyalari aniqlandi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi “**Oliy ta‘lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda oliy ta‘lim tashkilotlarida akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion jarayonlarda raqamlashtirish holati, oliy ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va boshqarish omillari, oliy ta‘lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan baholash dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.



7-rasm. Raqamlashtirish va innovatsiyalarning ta‘lim sifatini oshirishga ta‘siri

Raqamlashtirish ta‘lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma‘lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Ta‘limni raqamlashtirishning asosiy maqsadlari muallif tomonidan

aniqlashtirib berilgan. Bu teng imkoniyatlar, ta'lim sifati, iqtisodiy o'sish, hamkorlik, uzluksiz ta'lim, ma'lumotlar tahlilidan iborat bo'lib, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish orqali ta'lim sifatining ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish SI ta'limni tatbiq etish, sifatni oshirish va mehnat bozoriga moslashuvni ta'minlashda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Raqamli ta'lim-o'qitish va o'rganishni sifatli, samarali, mazmunli, oson hamda qiziqarli tashkil etish jarayonidir. Muallif tomonidan dasturiy vositalar, onlayn ta'lim platformalari, interfaol, multimediali va raqamli ta'lim resurslari, shu jumladan, ta'limni boshqarish tizimi (LMS), ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) va shu kabi bir qator dasturiy vositalar hamda texnologiyalarni qo'llash bugungi kundagi dolzarb masala sifatida o'rganilgan.

Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish moliyaviy hisob-kitoblarini samarali boshqarish, shaffoflikni oshirish va ma'muriy xarjlarni kamaytirishga qaratilgan. Ta'lim tizimida raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish jarayonini samarali tashkil etish, iqtisodiy va moddiy jarayonlarni o'zgartirish va takomillashtirish ekanligini tan oladigan bo'lsak, tahlil qilish uchun uch xil yo'nalishda o'rganildi:

universitetning iqtisodiy va moddiy jarayonlar tizimidagi o'zgarishlarga muvofiq ta'lim xizmatlarini o'zgartirish va qayta belgilash;

ta'lim xizmatlarini keyingi tahlil qilish va o'zgartirish uchun asos sifatida yangi AI-ga asoslangan ta'limda tadbirkorlik muhitini yaratishga qaratilgan o'quv jarayonlarini tashkil etish.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan Emanagement.uz platformasi yaratildi. Bu platforma oliy ta'lim tizimini samarali boshqarish uchun mo'ljallangan onlayn tizim bo'lib, unda ta'lim ko'rsatkichlari, innovatsion loyihalar, xorijiy mutaxassislar haqidagi statistikalalar, darsliklar va bo'lajak konferensiyalar haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.




8-rasm. Oliy ta'lim tizimini samarali boshqarish Emanagement.uz platformasi

Ushbu platformaning asosiy maqsadi-oliy ta'limni modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlariga moslashtirishdan iborat. Rejalashtirishda ta'lim siyosatini ishlab chiqish, resurslarni taqsimlash moddiy-texnik ba'za va mutaxassislarni tayyorlash dastlabki amalga oshiriladigan ishlar hisoblanadi. Bunda boshqaruv strategik, tizimli yondashuv, sifat menejmenti tamoyillari asosida funksiyalarni taqsimlanadi. Zamonaviy texnologiyalardan onlayn tizimlar, monitoring foydalanish yo'lga qo'yiladi. Ta'lim sifatini

o'lash, milliy va xalqaro standartlarga mos indikatorlar orqali nazorat qilish sharoitlarni hisobga olinadi.

Oliy ta'lim tizimida yaratilgan dasturiy ta'minot boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhimdir. Dasturiy ta'minot va platforma orqali oliy ta'lim tizimidagi samara bermaydigan yo'nalishlarni aniqlash imkoniyati bo'ladi. Elektron tizim orqali ta'lim sifatining pasayishi hamda kadrlar qo'nimsizligi xavfi oldini olish imkoniyati mavjuddir. Natijada, korrupsion omillarni kamaytirish va natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish tizimini joriy etish zarur. Oliy ta'lim muassasasi iqtisodiyotning drayveri hisoblanadi.



9-rasm. Oliy ta'limni boshqarish algoritmi¹⁷

Tadqiqotda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion asosiy guruhlar tarkibiga raqamlashtirilgan ta'limdan foydalanish darajasi integratsiya qilish orqali ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan. Bu oliy ta'limning rolini oshirishga xizmat qiladi. Transformatsiya raqamli platformalar orqali ta'lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Oliy ta'lim tizimini

¹⁷ Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tenglik (T q 0,23), inklyuzivlik (Ink q 0,28), innovatsiyalar (Inn q 0,35) va barqaror rivojlanish (BR q 0,14) tamoyillariga asoslangan baholash tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqishda tamoyillararo maqbul nisbatni ta'minlash orqali samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Bunda oliy ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tengligi asosan barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashni, tengsizlikni kamaytirishni va ta'lim orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishni anglatadi.

Oliy ta'limda inklyuzivlik-imkoniyati cheklangan insonlarning ta'lim tizimiga teng huquqli va faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu oliy ta'lim muassasalarida, tenglik va adolatni o'rnatishga qaratilgan bo'lib, ularning jamiyatga moslashuvi, iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy, tashkiliy va pedagogik texnologiyalarni qo'llashni joriy etish strategiyasi, oliy ta'lim muassasalarida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali ta'lim sifati indeksi takomillashtirish yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar asosida 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Ta'lim sifati indeksini yaxshilashning strategik modeli bu ta'lim sifatini tizimli oshirishning kontseptual mazmuni hisoblanadi va Input-Process-Output (IPO) yondashuviga asoslanadi. U oliy ta'lim tizimining uch asosiy darajasini qamrab oladi. Kirish ko'rsatkichlari (Input Indicators) - ta'lim jarayonining asosiy resurslari hisoblangan o'qituvchilarning professional malakasi, pedagogik sharoitlar, maktab infratuzilmasi, o'quv dasturining zamonaviyligi va o'quv-uslubiy resurslarga kirish imkoniyatidan iborat. Jarayon ko'rsatkichlari – resurslarning amaliyotga aylanishini ta'minlovchi o'qitish va o'rganish jarayoni hamda boshqaruv jarayonidan iborat. Uchinchi bosqichda chiqish ko'rsatkichlari yakuniy natijalardan iborat bo'lib, o'qituvchilarning akademik yutuqlari va kasbiy ko'nikmalar va axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Ta'lim sifati indeksini yaxshilashning strategik modeli dissertatsiya uchun mukammal kontseptual asos bo'lib, empirik tadqiqotlar, gipotezalarni shakllantirish va statistik modellashtirish uchun indikatorlar tizimini taqdim etadi.

Ta'lim sifati indeksini yaxshilashning strategik modeli bu ta'lim sifatini tizimli oshirishning kontseptual mazmuni hisoblanadi va Input-Process-Output (IPO) yondashuviga asoslanadi. U oliy ta'lim tizimining uch asosiy darajasini qamrab oladi. Kirish ko'rsatkichlari (Input Indicators) – ta'lim jarayonining asosiy resurslari hisoblangan o'qituvchilarning professional malakasi, pedagogik sharoitlar, OTM infratuzilmasi, o'quv dasturining zamonaviyligi va o'quv-uslubiy resurslarga kirish imkoniyatidan iborat. Jarayon ko'rsatkichlari-resurslarning amaliyotga aylanishini ta'minlovchi o'qitish va o'rganish jarayoni hamda boshqaruv jarayonidan iborat. Uchinchi bosqich chiqish ko'rsatkichlari yakuniy natijalardan iborat bo'lib, o'qituvchilarning akademik yutuqlari va kasbiy ko'nikmalar va axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Ta'lim sifati indeksini yaxshilashning strategik modeli dissertatsiya uchun mukammal kontseptual asos

bo‘lib, empirik tadqiqotlar, gipotezalarni shakllantirish va statistik modellashtirish uchun indikatorlar tizimini taqdim etadi.

Oliy ta‘limning ijtimoiy mohiyati jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, aholining bilim darajasini yuksaltirish hamda ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash bilan bog‘liqdir. Oliy ta‘lim yosh avlodni kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta‘lim ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, aholining bandlik darajasini oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirishga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Yuqori malakali mutaxassislar jamiyatda innovatsion fikrlashni rivojlantirib, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. Tizimni rivojlantirishning tub iqtisodiy mohiyati esa inson kapitaliga investitsiya sifatida namoyon bo‘ladi.

4-jadval

O‘zbekiston respublikasida ta‘lim va oliy ta‘lim xizmat ko‘rsatish hajmi ko‘rsatkichlari¹⁸

Davr (yil)	Oliy ta‘lim xizmatlari hajmi, mlrd so‘m*	Ta‘lim xizmatlari hajmi, mlrd so‘m*	Oliy ta‘lim xizmatlari hajmining jami ta‘lim xizmatlarida ulushi, foizda
	Y ₁	Y ₂	
2005	110,15	285,36	38,60
2006	114,36	295,35	38,72
2007	120,64	308,93	39,05
2008	125,93	320,67	39,27
2009	132,13	333,82	39,58
2010	119,92	300,77	39,87
2011	127,11	315,81	40,25
2012	135,19	332,23	40,69
2013	144,38	349,51	41,31
2014	159,96	381,31	41,95
2015	179,28	424,02	42,28
2016	195,50	457,10	42,77
2017	246,58	574,11	42,95
2018	270,34	626,36	43,16
2019	298,28	680,85	43,81
2020	297,99	675,40	44,12
2021	396,25	884,10	44,82
2022	452,06	999,92	45,21
2023	559,68	1195,90	46,80
2024	653,83	1376,48	47,50
2025	733,99	1519,64	48,30
2025/2005 nisbat, barobar	6,66	5,33	-

* 2005 yil narxlar indeksi bo‘yicha real qiymatlarda keltirilgan

¹⁸ O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ta'limga yo'naltirilgan mablag'lar uzoq muddatda iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga olib kelib ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimi iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarni yetkazib berish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga zamin yaratadi.

4-jadval ma'lumotlariga asoslanganda, 2005-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida ta'lim va oliy ta'lim xizmatlari hajmi ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Real narxlarda hisoblangan ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlari hajmi 2005-yildagi 110,15 mlrd so'mdan 2025-yilda 733,99 mlrd so'mga yetib, 6,66 barobar oshgan bo'lsa, umumiy ta'lim xizmatlari hajmi 285,36 mlrd so'mdan 1519,64 mlrd so'mga yetib, 5,33 barobar o'sishni ko'rsatgan. Tahlil natijalari oliy ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim xizmatlariga nisbatan tezroq rivojlanganini ko'rsatadi. Kizatuvar natijasida 2010 yilda har ikkala ko'rsatkich bo'yicha kamayish qayd etilgan, biroq keyingi yillarda o'sish sur'atlari tiklanib, barqaror davom etgan. Ayniqsa, 2017- yildan boshlab oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, nodavlat oliy ta'lim sektorining shakllanishi hamda qabul kvotalarining kengaytirilishi xizmatlar hajmining jadal oshishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim xizmatlari ulushi jami ta'lim xizmatlari tarkibida 2005-yildagi 38,6 foizdan 2025-yilda 48,3 foizga yetib, 9,7 foiz punktga oshgani ta'lim tizimi tarkibida oliy ta'limning ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli islohotlar natijasida yuzaga kelgan deyishimiz o'rinlidir. Mazkur tendensiya mamlakatda ta'lim xizmatlari hajmining o'sishi xizmatlar sektorining kengayib borayotganini, oliy ta'limning esa ushbu tizimda yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanayotganini ifodalaydi.

Xususan, oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ta'lim sifati, boshqaruv xarajatlari, oliy ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish holati, professor-o'qituvchilarining o'rtacha oylik maoshi, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati, kadrlar tayyorlash xarajatlari kabi omillar shular jumlasidandir. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz.

1-modelda Y_2 ning o'rtacha elastikligi quyidagiga teng, ya'ni

$$e_{Y_2} q 0,50823 \cdot \frac{601,79}{265,41} q 1,15$$

Qolgan omillar kesimida ham xuddi shu kabi hisoblashlar yordamida quyidagi natijalar kelib chiqadi (6-jadval).

5-jadval

Oliy ta'lim xizmatlari hajmiga ta'sir omillarining elastiklik ko'rsatkichlari¹⁹

Satr tasnifi	Ko'rsatkichlar					
	eX_1	eX_2	eX_3	eX_4	eX_5	eX_6
Elastiklik	7,021937	1,3477084	0,8921633	0,7588619	0,9558985	0,7728065

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlarini ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeli asosida modellashtirish bir qator muhim afzalliklarga ega. Chunki, ARIMA modeli vaqtli qatorlar bilan ishlashga moslashgan bo'lib, oliy ta'lim xizmatlari hajmi, talabalar soni, moliyalashtirish darajasi yoki professor-o'qituvchilar soni kabi ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini hamda trend va tasodifiy tebranishlarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Ikkinchidan, ARIMA modeli statistik jihatdan moslashuvchan bo'lib, ma'lumotlar stasionar bo'lmagan holatlarda ham differensiallash orqali ishonchli natijalar olish imkonini yaratadi.

6-jadval

Oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlari uchun ARIMA tipidagi model parametrlari va adekvatlik darajalari²⁰

Model tasnifi	Koeffitsiyent	Std. xatolk	z-statistika	P-qiyamat	R ²
Oliy ta'lim xizmatlari hajmining ARIMA(1,1,1) modeli	37,7605	12,29247	3,07184	0,0021	0,98
	0,912283	0,111137	8,209	<0,0001	
	-0,443433	0,197899	-2,241	0,0250	
Ta'lim xizmatlari hajmining ARIMA(1,1,1) modeli	71,5600	25,43949	2,81295	0,0049	0,98
	0,904193	0,123607	7,315	<0,0001	
	-0,489676	0,207837	-2,356	0,0185	
Ta'lim sifati indeksining ARIMA(1,1,1) modeli	0,00580765	0,000214647	27,06	<0,0001	0,99
	0,616790	0,193139	3,193	0,0014	
	-1,00000	0,151917	-6,583	<0,0001	
OTM da boshqaruv xarajatlarining ARIMA(1,1,1) modeli	2,03130	0,953425	2,13053	0,0332	0,97
	0,856321	0,196078	4,367	<0,0001	
	-0,544277	0,257837	-2,111	0,0348	
Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasining ARIMA(1,1,0) modeli	2,18996	0,458216	4,779	<0,0001	0,99
	0,617005	0,173166	3,563	0,0004	
OTM professor-o'qituvchilarining o'rtacha oylik maoshi dinamikasining ARMA(2,0) modeli	4622,97	2205,921	2,09571	0,0361	0,99
	1,92280	0,0585361	32,85	<0,0001	
	-0,931997	0,0590361	-15,79	<0,0001	
Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati dinamikasining ARMA(1,1) modeli	28,8359	11,0771	2,603	0,0092	0,88
	0,934657	0,0817729	11,43	<0,0001	
	0,530184	0,237412	2,233	0,0255	
Kadrlar tayyorlash xarajatlarining ARIMA(0,1,1) modeli	17,8581	2,28433	7,818	<0,0001	0,99
	0,724237	0,154425	4,690	<0,0001	

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, yangi OTMlar ochilishi va qabul kvotalarining oshishi kabi omillar vaqtli qatorlarda

¹⁹ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²⁰ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

keskin o'zgarishlarni keltirib chiqargan. ARIMA modeli aynan shunday jarayonlarni hisobga olishda samarali hisoblanadi. Uchinchidan, ARIMA asosida tuzilgan prognozlar davlat siyosatini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, oliy ta'limga talabning kelgusi yillardagi o'sishini oldindan baholash orqali byudjet mablag'larini taqsimlash, infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar tayyorlash strategiyasini aniqroq belgilash mumkin. Shu sababli, ARIMA modeli oliy ta'lim tizimini tahlil qilish va prognozlashda ishonchli va amaliy ahamiyatga ega usul hisoblanadi.

Shu boisdan tadqiqotimizda ARIMA tipidagi quyidagi modellar ishlab chiqildi. Ushbu modellar asosida oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari hisoblab chiqildi (7-jadval).

7-jadval

Oliy ta'lim tizimi ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari²¹

Prognoz yillari	Ta'lim xizmatlari hajmi, mlrd so'm*	Ta'lim sifati indeksi	OTM da boshqaruv xarajatlari, mlrd so'm*	Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar ni joriy etish darajasi, foizda	OTM professor-o'qituvchilarining o'rtacha oylik maoshi, ming so'mda*	OTMlarining ilmiy salohiyati, foizda	Kadrlar tayyorlash xarajatlari, mlrd so'm*
	Y ₂	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅	X ₆
2026	1664,32	0,767	46,73	63,19	7214,26	53,1	429,3
2027	1819,29	0,771	50,15	65,44	8096,63	58,1	447,2
2028	1999,52	0,779	53,37	67,66	9108,9	63,9	465,1
2029	2224,76	0,786	56,42	69,86	10259,11	70	482,9
2030	2469,99	0,792	59,32	72,04	11573,86	76,7	500,8
O'rtacha o'sish, %	110,20	100,80	106,61	103,42	112,44	109,51	104,02
2030/2025 nisbat	1,72	1,63	1,04	1,38	1,18	1,80	1,57

* ko'rsatkichlar 2005 yil narxlar indeksi bo'yicha statistik tekislangan

Keltirilgan prognoz jadvali O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining 2026-2030 yillar davomida barqaror va tizimli rivojlanishini ko'rsatib bermoqda. Xususan, ta'lim xizmatlari hajmi yildan-yilga sezilarli o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2026-yildagi 1664,3 mlrd so'mdan 2030-yilga kelib 2469,9 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu 2030/2025 nisbatida 1,72 baravar o'sishni anglatib, oliy ta'lim sohasiga bo'lgan talabni shakllanish izchilligini ko'rsatib beradi.

Ta'lim sifati indeksi nisbatan sekin, biroq barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Ushbu ko'rsatkichning 0,767 dan 0,792 gacha oshishi ta'lim sifati bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, standartlar va monitoring tizimlarining ijobiy samarasini aks ettiradi. Shu bilan birga, OTMlarda boshqaruv xarajatlarining o'sishi asosan institutsional rivojlanish, raqamlashtirish va boshqaruv samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi 63,2 foizdan 72,0 foizgacha oshishi prognoz qilinib, oliy ta'lim tizimida raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish va

²¹ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilayotganidan dalolat beradi. Professor-o'qituvchilarning o'rtacha oylik maoshi bo'yicha yuqori o'sish sur'ati (o'rtacha 112,4 foiz) kadrlar motivatsiyasini oshirish va sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan islohatlarning keyingi 5 yillikda yuqori samaradorligi ta'minlanadi.

OTMlarning ilmiy salohiyati va kadrlar tayyorlash xarajatlarining o'sishi esa ilmiy-tadqiqot faoliyati va inson kapitaliga yo'naltirilayotgan mablag'lar ortib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur prognoz natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimi miqdoriy kengayish bilan bir qatorda sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko'tarilayotganini xulosalash imkonini bermoqda.

Yuqoridagi rivojlanish parametrlarining ijobiy darajalari oliy ta'lim xizmat ko'rsatish hajmining trend xususiyatlariga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Bu bir tomondan oldingi tendensiyada shakllangan qonuniyatlarning istiqbolga qay darajada sizib o'tishini ham baholab beradi. Ko'rsatkich uchun trend quyidagicha formallashtirildi.

$$Y_1 q180,2297 - 28,0253 * t Q2,49548 * t^2, R^2 q0,98 \quad (3.1)$$

(t; p): (8,35; 0,000) (-6,2; 0,000) (12,5; 0,000)

Tuzilgan modellar asosida oliy ta'lim xizmat ko'rsatish hajmining prognoz ko'rsatkichlari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Oliy ta'lim xizmat ko'rsatish hajmining prognoz parametrlari²²

Prognoz yillari	Oliy ta'lim xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'm*		
	Ko'p omilli model asosida	ARIMA modeli asosida	Trend asosida
2026	798,08	811,02	771,50
2027	876,84	900,54	855,77
2028	968,44	1008,02	945,04
2029	1082,92	1126,27	1039,29
2030	1207,55	1262,46	1138,54
O'rtacha o'sish, %	110,47	111,46	109,18
2029/2023 nisbat	1,65	1,72	1,55

* ko'rsatkichlar 2005- yil narxlar indeksi bo'yicha statistik tekislangan

Bizning holda, uchta sseneriy natijalari mavjud. Biroq, modellar orasida ARIMA modeli uchun hisoblangan Akaiki axborot mezoni eng kichik qiymatlangan, ya'ni -3,57 ga teng. Shu va umumiy adekvatlik darajalaridan kelib chiqib biz aynan ARIMA tipida ishlab chiqilgan model natijalariga ustuvorlik berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Demak, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim xizmat ko'rsatish hajmi 2030-yilda 2025-yilga nisbatan 1,72 barobarga oshadi. Istiqboldagi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 11,5 foizni tashkil etadi.

Bu natijaviylikning ta'minlanishi zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini boshqarish jarayonlari samaradorligi bilan bevosita bog'liq ravishda kechadi. Bugungi kunda oliy ta'limni rivojlantirish nafaqat moliyaviy resurslar

²² Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

hajmi, balki strategik rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, raqamli texnologiyalarni joriy etish va institutsional muvofiqlashtirish darajasiga ham bog'liq bo'lib bormoqda. Ta'lim xizmatlari hajmining jadal o'sishida OTMLlarda boshqaruv qarorlarining tezkor va asosli qabul qilinishi, ta'lim jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda bozor talablariga moslashuvchanlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bilimga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida ta'lim, ilm-fan va tijoratni uch yo'nalishda — iqtisodiy (tijoratlashirish), tashkiliy (menejment o'zgarishlari) va pedagogik (yangi o'qitish usullari) — qamrab olgan integratsiya tizimini joriy etish taklifi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu tizimni amalga oshirish orqali universitetlarning tijorat faoliyati ulushini kamida 25 % ga oshirish imkoniyati ko'rsatib o'tilgan. Mazkur taklif O'zbekistonda oliy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida ishlab chiqilgan 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Ekonometrik modellashtirish natijalari oliy ta'lim xizmatlari hajmi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi, ilmiy potentsial va boshqa asosiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sish tendentsiyasini tasdiqlab, taklif etilayotgan integratsiya tizimining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

XULOSA

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag'ishlangan mazkur dissertatsiya tadqiqoti quyidagi asosiy ilmiy xulosalarni keltirildi:

zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini boshqarishni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasi inson kapitalini shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslangan. Dissertatsiyada mazkur jarayonning nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda tadqiq etilgan;

tadqiqot natijasida "oliy ta'lim tizimini boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kengaytirilib, uni ta'lim sifati, moliyaviy samaradorlik, inson kapitali va innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida talqin etishning ilmiy-uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tizimini strategik rivojlantirishda ta'lim sifati ko'rsatkichlarini baholashning takomillashtirilgan indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion omillarning o'zaro integratsiyalashgan holda baholanishi zarurligi asoslangan;

tadqiqotda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi chuqur o'rganilib, ularning oliy ta'lim boshqaruvi modellari qiyosiy tahlil qilingan. Natijada milliy oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro reytinglarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

dissertatsiyada oliy ta'lim tizimini boshqarishda tenglik, inklyuzivlik, innovatsion rivojlanish va barqarorlik tamoyillariga asoslangan baholash mexanizmi taklif etilib, ushbu mezonlarning optimal nisbatlari boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim sifatini monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, ular boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

strategik rivojlanishda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi indikatorlar tasnifi akademik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion guruhlar tarkibiga raqamli ta'lim qamrovi indeksi, xalqaro reytinglarda ishtirok va innovatsiya-tijoratlashtirish indeksi (ICI) kabi xususiy ko'rsatkichlarni kiritish orqali yangitdan takomillashtirildi;

oliy ta'lim muassasalarida bilimga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali mexanizmi sifatida ta'lim, ilm-fan va tijoratni iqtisodiy (tijoratlashtirish), tashkiliy (menejment o'zgarishlari) va pedagogik (yangi o'qitish usullari) yo'nalishlarda integratsiya qiluvchi tizim ilmiy asoslab berildi. Mazkur integratsiya tizimini joriy etish orqali universitetlarning tijorat faoliyati ulushini kamida 25 % ga oshirish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan va amaliyotga joriy etilgan.

innovatsion va tijoratlashtirish jarayonlarining oliy ta'lim muassasalari faoliyatining umumiy natijalariga ta'siri statistik jihatdan yuqori ishonchlilik darajasida ($\beta = 0,327$; $\pi < 0,001$) tasdiqlandi;

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar asosida ekonometrik model ishlab chiqilib, 2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli prognoz ko'rsatkichlar shakllantirilgan. Bu strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. Prognoz natijalariga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlari hajmi 1,72 baravar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi 72,04 % gacha, ilmiy salohiyat va boshqa asosiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendentsiyasini namoyon etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.1.23.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ.**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

НИЗАМОВА ШОИРА ИСАМИДДИНОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНИЯ
СИСТЕМОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ
СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ**

08.00.13 - Менеджмент

**диссертация доктора экономических наук (DSc)
АВТОРЕФЕРАТ**

Ташкент -2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под № В2021.3.PhD/Iqt1818.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Назарова Фотима Хакимовна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гулямов Саидахрор Саидахмедович
доктор экономических наук, академик

Кориева Якутхон Каримовна
доктор экономических наук, профессор

Абдуллоев Аслиддин Джунайдуллоевич
доктор экономических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится "9" июня 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете (Адрес: 100059, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 227-12-52; факс: (99871) 246-06-69.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под № 2040). (Адрес: 100066, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 227-12-52; факс: (99871) 246-06-69.)

Автореферат диссертации распространен «26» 05 2026 г.
(Протокол реестра рассылки № 41 от «25» 05 2026 г.)



Г.К. Абдурахмонова
Исследователь Научного совета по присуждению ученых степеней доктор экономических наук, профессор

О.Д. Джурабаев
Учленный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ш.А. Аллаиров
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике социально-экономическое развитие управления системой высшего образования проявляется в качестве важного стратегического направления и является решающим фактором, приводящим в равновесие взаимоотношений между человеческим капиталом, инновационным потенциалом и рынком труда. Обеспечение соответствия между экономической эффективностью и социальной справедливостью в управлении системой образования, диверсификация источников финансирования и внедрение моделей цифрового управления повышают устойчивость высших образовательных учреждений. Согласно исследованиям Всемирного банка, “эффективное управление образованием повышает производительность труда на уровень, равный 1 проценту роста ВВП в каждой стране”¹. Поэтому значение управления высшим образованием в социально-экономическом развитии является одним из основных драйверов стремления страны к конкурентоспособной экономике и социальной стабильности. В Целях устойчивого развития до 2030 года ООН (Sustainable Development Goals) определено, что высокий спрос на рынке труда повышает конкурентоспособность образовательных учреждений и является одним из глобальных индикаторов обеспечения диверсификации образовательных услуг. Социально-экономическое развитие управления системой высшего образования в условиях современного развития вызывает необходимость внедрения эффективных механизмов управления в системе высшего образования.

На современном этапе развития образования во всем мире проводятся важные научные исследования, посвященные устойчивым темпам развития системы высшего образования, коммерциализации системы высшего образования, взаимосвязи высшего образования и рынка труда, совершенствованию качества образования и механизма его развития, системе финансирования высших образовательных учреждений, охвату молодежи высшим образованием, методологическим и методическим аспектам развития рынка услуг высшего образования на основе государственно-частного партнерства. Развитие образования в качестве средства обеспечения экономической, социальной и экологической стабильности и развития личности в условиях интенсивной модернизации экономики обеспечивает реформы в системе образования, развитие рынка труда, изменяет требования к уровню и качеству подготовки, структуре профессиональных навыков и умений специалистов, требует реформы системы воспроизводства человеческого капитала. Это, в свою очередь, требует внедрения механизмов обеспечения соответствия управления системой высшего образования современным требованиям.

В сфере обеспечения эффективности коренных преобразований и реформ, осуществляемых в области создания основ Нового Узбекистана и

¹ World Bank, The Changing Wealth of Nations 2023.

Третьего Ренессанса, в высших образовательных учреждениях проводится работа по подготовке конкурентоспособных кадров и улучшению управления качеством образования. Подчеркнута необходимость «поэтапное внедрение концепции «Университет 3.0», предусматривающей тесную связь образования, науки, инноваций и деятельности по коммерциализации результатов научных исследований в высших образовательных учреждениях»², а также «последовательного продолжения политики, направленной на дальнейшее повышение качества образования и воспитание нашей молодежи как всесторонне развитых личностей»³. В Узбекистане определен ряд задач и реализуются практические меры по управлению системой высшего образования в контексте социально-экономического развития. К примеру, увеличено количество государственных грантов и значительно расширены грантовые механизмы для оставленных студентов, увеличены квоты приема и охват высшим образованием, охват высшим образованием выпускников школ увеличен с 9 % до 47 %⁴. Эти меры служат повышению качества знаний в высших образовательных учреждениях и статуса научной деятельности, повышению экономической привлекательности, обеспечению качества подготовки кадров, что усиливает актуальность научных исследований в этой сфере.

Настоящая научно-исследовательская работа в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан, от 21 февраля 2024 года УП-37 «О стратегии «Узбекистан-2030»» от 5 октября 2020 года, УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации» от 28 января 2022 года, УП -60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 10 апреля 2024 года, УП-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций» от 29 октября 2020 года УП -6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 6 ноября 2020 года, УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования, воспитания и науки в новый период развития Узбекистана» от 8 октября 2019 года, УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

² Указ Президента Республики Узбекистан УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года.

³ Выступления Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева 20 ноября 2024 года на заседании Законодательной палаты Олий Мажлиса, посвященном рассмотрению кандидатуры Премьер-министра Республики Узбекистан и обсуждению программы действий Кабинета Министров в близкой и далекой перспективе.

⁴ Источник: «Сайт «Реформы высшего образования: проблемы, решения, достижения», 2024. - <https://uza.uz/ru/>.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁵.

Научные исследования, посвящённые социально-экономическому развитию системы высшего образования, проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в том числе в Оксфордском университете (Великобритания), Центре исследований образовательной политики Мельбурнского университета (Австралия), Европейском университетском институте во Флоренции (Италия), Стэнфордском университете (США), академиях государственного управления при Президенте Республики Казахстан, Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. В рамках мировой системы образования осуществлен ряд таких исследований, как анализ развития инновационного обучения, подходов к неформальному образованию при управлении качеством образования и современных методов управления в Университете Джорджа Вашингтона при Институте обучения на рабочем месте (WLI, США); влияние кейс-методов на формирование навыков управления в Гарвардском университете (США); анализ образования и использование больших данных для управления качеством образовательных программ в Институте менеджмента образования при Университете Лафборо (Великобритания); адаптация образования к изменяющимся требованиям посредством влияния стратегий саморегулирования и обратной связи в Университете Монаша (Австралия); особенности стратегического планирования и адаптивного управления в быстро изменяющейся образовательной среде в Институте высшего образования при Кассельском университете (Германия); разработка образовательной политики и аспекты управления качеством на всех этапах образования в Высшей школе экономики (Россия). Наряду с этим в мировом масштабе проводятся исследования в следующих направлениях: интеграция цифровых технологий в образовательный процесс для руководителей и менеджеров учреждений, моделирование педагогических возможностей в сфере образовательных услуг в условиях трансформаций, разработка образовательных программ, направленных на углубление навыков управления и лидерства в контексте стратегий управления, совершенствование системы менеджмента посредством маркетинговых технологий и других.

